



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Ijtimoiy soha statistikasi Buxoro viloyatida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi

2017/2018 o'quv yili boshiga jami 87 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil olayotgan 66988 nafar o'quvchilarga, 4990 nafar pedagog xodimlar ta'lim bermoqda. Joriy yilda o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalariga 9935 nafar o'quvchi qabul qilingan bo'lsa, bitiruvchilar soni 27709 nafarni tashkil etdi.


2017/2018 o'quv yili boshiga Buxoro viloyati o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari

Akademik litseylar soni 6 tani tashkil qilib ular: Buxoro shahrida 3ta, Qorovul bozor, Gijduvon va Qorako'l tumanlarida 1 tadan bo'lib, ularda 3755 ta o'quvchi tahsil olyapti.


Kollejlar soni 81 ta ulardan: Buxoro shahrida 17 ta, Kogon shahrida 2 ta, G'ijduvon tumanida 11 ta, Qorako'l tumanida 8 ta, Shofirkon va Vobkent tumanlarida 7 tadan, Buxoro va Romitan tumanlarida 6 tadan, Jondor va Peshko' tumanlarida 5 tadan, Olot tumanida 4 ta, Kogon tumanida 2 ta va Qorovulbozor tumanida 1 tani tashkil etib, ulardagi o'quvchilar soni jami 63233 tani tashkil qiladi.

2017/2018 o'quv yili boshida 66988 nafar o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilarining 94 % i kasb hunar kollejlarida, 6 % i akademik litseylarda tahsil olmoqda.

Hududlardagi kollej va ulardagi o'quvchilar soni




Hududlardagi akademik litsey va ulardagi o'quvchilar soni



2017/2018 o'quv yili boshida o'rta maxsus kasb hunar ta'lim muassasalarining 1 nafar o'qituvchisiga 13 nafar o'quvchi to'g'ri kelyapti. Ushbu ko'rsatkich akademik litseylarda 9 nafarni, kasb hunar kollejlarda 14 nafarni tashkil qiladi.

Hududlar kesimida bir nafar o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni (kishi)



Бухоро вилоят статистика бошқармаси
Ижтимоий соҳа статистикаси бўлими
Нашр учун масъул: Ф.Хафизова
(0371) 230-83-18